

YURTIMIZDA TA'LIM SOHASIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA O'ZGARISHLAR.

Salimov Javohir Abdumo'min o'g'li¹

¹ Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti CHXT
yo'nalishi 1-kurs magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 15.12.2024

Revised: 16.12.2024

Accepted: 17.12.2024

KALIT SO'ZLAR:

Axborot-
kommunikatsiya
texnologiyalari, "Ta'lim
to'g'risida"gi qonun,
jahon axborot tarmog'i,
qonun, inklyuziv ta'lim,
sensor (sezgi), «Yo'l
xaritasi», xalqaro
sertifikat.

Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar hamda o'zgarishlar chuqur yoritib o'tilgan.

KIRISH. Bizga ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'z navbatida, mazkur islohotlarning salmoqli qismini ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etmoqda. Men ushbu maqolamni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Ta'lim-tarbiya- bu bizning kelajagimiz, hayot mamot masalasi" degan so'zlarini takrorlash bilan boshlamoqchiman. Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020 yil 23 sentyabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi, unda belgilangan masofaviy ta'lim haqidagi

qoidalar o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Shuningdek, Qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo'ldi. Qonunda indevedual ta'limga oid qoidalar belgilanib, u ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, qonunga inklyuziv ta'lim to'g'risidagi qoidalar kiritilib, unga binoan, inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etadi.

Mazkur qonun jahon standartlari talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning qamrovi kengligi va o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan 1997 yil 29 avgust kuni qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonundan tubdan farq qiladi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ma'lum qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Hususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. So'nggi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta'lim tizimidagi islohotlar va amaliy chora-tadbirlar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tashkil etilmoqda:

- 1) maktabgacha ta'lim sohasida;
- 2) umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- 3) oliy ta'lim;
- 4) oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- 5) kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

Demak, amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida boshlanishi ham bugungi kunda ushbu sohaga alohida e'tibor berilayotganligidan darak bermoqda. Bugungi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Mazkur sohaga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi. Mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asosi sifatida "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunni keltirishiz mumkin. Mazkur Qonunda maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga doir davlat kafolatlari va boshqa shunga o'xshash masalalar belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori misolida ko'rsak, mazkur konsepsiya maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, bir so'z bilan aytganda, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli vazifalarini qamrab olgan bo'lib,

maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;
- maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;
- maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlash;
- Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019 yilda amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi»;
- 2019–2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari;
- 2025–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlangan.

Bu qarorlar maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, qabul qilinmoqda.

Shuningdek yurtimizda maktab ta'limiga ham juda katta e'tibir qaratilmoqda so'ngi yillarda maktablar soni keskin oshgani va eski maktablar yangidan rekonstruksiya qilingani bunga yaqqol misoldir. O'zbekistonda so'nggi 5-yilda maktablar soni 6,5 foizga oshib 10 750 tani tashkil etdi, deyiladi statistika agentligi e'lon qilgan ma'lumotlarda. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari eng ko'pi Samarqand viloyatida joylashgan — 1323 ta maktab. Lekin yangi qurilayotgan maktablar soni bo'yicha birinchi o'rinda — Toshkent, o'sish 20,8 foizni tashkil etgan. Eng kam o'sish esa Toshkent viloyatida kuzatildi – 5-yil ichida maktablar soni 2,8 foizga oshdi xolos.

Shuningdek Oliy Ta'lim sohasida ham juda juda ko'plab ko'zga ko'rinarli ishlar olib borilmoqda. Bunga misol qilib Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta'lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilangan. Hujjatda ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ta'lim muassasalarini qurish, ta'mirlash va kapital ta'mirlash barobarida ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash nazarda tutilgani aytishimiz mumkin.

"Yangi O'zbekiston strategiyasida oliy ta'lim tizimlaridagi vazifalar:

- Oliy ta'limga qamrov darajasini 50 foizga yetkazish bilan birga asosiy e'tibor ta'lim sifatini oshirishga qaratiladi. 2026-yilga qadar kamida 10 ta oily goh nufuzli xalqaro reytinglarga kiritiladi;
- Talabalarning yashash sharoitini yaxshilash uchun kelgusi besh yilda qariyb 100 ming o'rinli talabalar yotoqxonolari barpo etiladi;
- Oliy ta'limda raqobat muhitini kuchaytirish maqsadida 2026-yilgacha xususiy oilygohlar soni kamida 50 taga yetkaziladi.

· Doktoranturaga qabul davlat buyurtmasi hamda manfaatdor tashkilotlar mablag'lari hisobidan to'lov-grant asosida joriy etiladi," - deb ta'kidladi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining saylovoldi dasturida.

So'nggi yillarda qabul kvotalari qariyb bir necha barobarga ortdi. Bundan tashqari, kelgusi yillar davomida bu ko'rsatkichni 50 foizga yetkazish, oily ta'lim muassasalarining nufuzini yanada ortirish, shuningdek, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan maqsadli chora tadbirlar dasturiga asosan aytaolamanki, bu tizimni islohotlar kutmoqda. Bu jarayonda, o'qituvchilarning ilmiy darajasini orttirish, professor o'qituvchilarning oylik maoshlarini ko'paytirish bo'yicha ham chora tadbirlar ko'rilmogda. Oliy ta'lim tizimida, umuman olganda, ta'limning barcha bosqichlarida dars berayotgan ingliz tili o'qituvchilarining atigi 4 foizi xalqaro sertifikatga egaligi bu borada qilinishi zarur bo'lgan ishlar salmoqli ekanligini ko'rsatmoqda.

XULOSA. Xulosa o'rnida, ta'lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir. Shularni xisobga olgan xolda yurtboshimiz tomonidan yoshlarga ko'plab imkoniyatlar berilmogda. Bunga misol qilib magistratura bosqichiga qabul qilingan barcha qizlarning to'lov-kantrakti davlat hisobidan qoplab berilishi ayniqsa talaba-qizlarimizga qaratilgan yuksak e'tibor desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. - T.:O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. /1-jild/ -T.: O'zbekiston NMIU, 2017. 592-b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF- 4947-son Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 -yil, 6-son, 70-modda